

O'SMIR YOSHDAGI QIZLARNING MILLIY HUNARMANDCHILIK VOSITASIDA UMUM-KASBIY KOMPETENTSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YONDASHUVLARI

Meliboyeva Sarvinoz Sobirjon qizi

Qo'qon davlat universiteti

Boshlang'ich ta'lim kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: *maqolada o'smir yoshdagi qizlarni milliy hunarmandchilik vositasida umum-kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-pedagogik jarayonida ustuvor bo'lgan tamoyil (bosh g'oya, yetakchi qarash)lar haqida so'z ketadi.*

Kalit so'zlar: *o'smir yoshdagi qizlar, umum-kasbiy kompetentsiyalar, "Ustoz-shogird" tamoyili, Vitagenlik tamoyili, Kollaborativ yondashuv tamoyili*

PRIORITY APPROACHES TO IMPROVING THE GENERAL PROFESSIONAL COMPETENCE OF ADOLESCENT GIRLS THROUGH NATIONAL CRAFTS

Meliboyeva Sarvinoz Sobirjon kizi

Kokand State University

Teacher, Department of Primary Education

Annotation: *The article discusses the priority principles (main idea, leading view) in the scientific and pedagogical process aimed at improving the general professional competence of adolescent girls through national crafts.*

Keywords: *adolescent girls, general professional competencies, "Teacher-student" principle, Vitagenicity principle, Collaborative approach principle*

ПРИОРИТЕТНЫЕ ПОДХОДЫ К СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ ОБЩЕПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ДЕВУШЕК-ПОДРОСТКОВ ЧЕРЕЗ НАЦИОНАЛЬНЫЕ РЕМЕСЛА

Мелибоева Сарвиноз Собиржон кызы

Кокандский государственный университет

Преподаватель кафедры начального образования


Аннотация: *В статье рассматриваются приоритетные принципы (главная идея, руководящая идея) в научно-педагогическом процессе, направленном на совершенствование общепрофессиональной компетентности девушек-подростков посредством национальных ремесел.*

Ключевые слова: девушки-подростки, общепрофессиональные компетенции, принцип «Учитель-ученица», принцип витагеничности, принцип коллаборативного подхода

Jahonda so‘nggi chorak asr mobaynida ro‘y bergan raqamli texnologiyalar sohasidagi global o‘zgarishlar, milliy jamiyatlar aholisi o‘rtasida sodir bo‘layotgan keskin differentsiatsiyalanish sharoitida kambag‘allikni qisqartirish, inson kapitalidan oqilona foydalanish, yosh avlodni kasbiy faoliyatga maqsadli yo‘naltirish, ularning samarali iqtisodiy ijtimoiylashuvini ta‘minlash muammolarining yanada dolzarblashuviga olib keldi.

Har qanday, shu jumladan, pedagogik jarayon ham odatda muayyan g‘oyalar ta‘sirida kechadi. Boshqacha aytganda, ma‘lum g‘oyalar ham pedagogik ham ilmiy-pedagogik jarayonning muvaffaqiyatini ta‘minlashda ustuvorlik kasb etadi.

Shunga ko‘ra o‘smir yoshdagi qizlarni milliy hunarmandchilik vositasida umum-kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-pedagogik jarayonida ustuvor bo‘lgan tamoyil (bosh g‘oya, yetakchi qarash)lar aniqlandi. Ilmiy-pedagogik faoliyatni quyidagi tamoyillar ustuvorligi asosida tashkil qilish tadqiqot muammosining ijobiy yechimga ega bo‘lishiga olib keldi (1.3.2-rasm):



1.3.2-rasm. O‘smir yoshdagi qizlarni milliy hunarmandchilik vositasida umum-kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishning ustuvor tamoyillari

Qayd qilingan ustuvor tamoyillar o‘smir yoshdagi qizlarni milliy hunarmandchilik vositasida umum-kasbiy kompetensiyasini takomillashtirish jarayonida quyidagi natijalarga erishish uchun xizmat qiladi.

1. Kollaborativ yondashuv tamoyili. Bu tamoyil tadqiqot davrida mahalla, oila va ta'lim muassasalari kabi sub'yektlarning o'smir yoshidagi qizlarning kelgusida milliy hunarmandchilik turlari bo'yicha faoliyat yuritish orqali ijtimoiylashuvini ta'minlashda o'zaro hamkor sifatida tashkiliy-boshqaruv, metodik va refleksiv imkoniyatlaridan maqsadli, izchil, samarali foydalanishni anglatadi. Zero, "kollaboratsiya" (ing. "collaborative") tushunchasi lug'aviy jihatdan "umumiy", "birlashgan", "hamkorlik" ma'nolarini yoritishga, nazariy tomondan esa "birgalikda amalga oshirilayotgan faoliyatda umumiy maqsadga erishish uchun ishtirokchilarning imkoniyatlarini birlashtirishgan holda bir vaqtning o'zida ular o'rtasida funksiyalar, rollar va hokazo shu kabi harakatlarni taqsimlash", "o'zaro bilimlarni almashish, mavjud tajribalarni o'rtoqlashish, birgalikda qarorlar qabul qilish" ekanini ifodalashga xizmat qiladi.

2. Qadriyatli yondashuv tamoyili. Mazmunidan anglanadiki, ushbu tamoyil nazarda tutilayotgan ilmiy-pedagogik faoliyatni tashkil qilishda milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga tayanib ish ko'rish maqsadga muvofiq ekanini bildiradi. O'smir yoshidagi qizlar u yoki bu turdagi milliy hunarmandlik yo'nalishida kasbiy bilim, ko'nikma, malakalarni o'zlashtirar ekan, asosiy e'tiborni yaratilayotgan mahsulotlarda milliy qadriyatlarni saqlab qolish bilan birga uni zamonaviy o'zgarishlar, umuminsoniy ehtiyojni inobatga olgan holda takomillashtirib borish zarurligini anglashi, bu yo'lda amaliy harakatlarni olib borishi kerak. Buning uchun o'smir yoshidagi qizlarning ongiga, eng avvalo, milliy hunarmandlikning asriy qadriyat, milliylikni namoyon qiluvchi muhim atributlardan biri ekani to'g'risidagi qarashni singdirish talab qilinadi. Binobarin, shundagina hunarmandlik vositasida milliylik avloddan avlodga uzatiladi, sohaning yashovchanligi, umrboqiyliqi saqlab qolinadi.

3. Kompetentli yondashuv tamoyili. Mazkur tamoyil bevosita o'smir yoshidagi qizlarda umum-kasbiy kompetensiyani takomillashtirishga qaratilgan pedagogik faoliyatni tashkil qilishda "ta'lim maqsadini belgilash, o'qitish, ta'lim jarayonini uyushtirish, shuningdek, ta'limiy natijalarni baholash mazmunini tanlashning umumiy tamoyillari" ni belgilashga yordam beradi. Tamoyilni ta'lim amaliyotiga tatbiq qilishda shaxsda aniq belgilangan tayanch kompetensiyalarni rivojlantirish ko'zda tutiladi. L.O.Filatovanning qayd etishicha, kompetentlik nafaqat intellektual element, balki muayyan malakalarni rivojlantirish omili sifatida ko'riladi; kompetensiyalar kognitiv, harakatli-texnologik, motivasion, xulqiy va ijtimoiy xarakter kasb etadi, shu bois uning tarkibiga o'qitish natijalari: bilim, malaka, individning qadriyatlari tizimi, u afzal ko'rgan omillar kiradi; kompetensiya ular foydali bo'ladigan aniq vaziyatlarda mavjud bilim va malakalardan foydalanishni nazarda tutadi; tegishli tushuncha o'zida ta'limning asosiy mohiyatini, uning natijalarini qamrab oladi; ta'lim jarayonida shaxsning asosiy malakalarini identifikatsiyalash talab qilinadi; qolaversa, kompetensiya nafaqat ta'lim jarayonida, shu bilan birga rasmiy, norasmiy va rasmiylikdan tashqari sharoit: atrof-muhit ta'sirida ham rivojlanadi.

Muallifning fikrlaridan anglanadiki, o'smir yoshdagi qizlarni milliy hunarmandchilik vositasida kasbiy faoliyatga yo'naltirishda ular tomonidan umum-kasbiy kompetensiyalarning amaliy ahamiyatini yetarlicha baholanishiga, kognitiv, harakatli-texnologik, motivasion, xulqiy va ijtimoiy xarakter kasb etishiga, qadriyatlar tizimidan o'rin olishiga, aniq vaziyatlarda mavjud kompetensiyalardan samarali, maqsadli foydalanishga, ta'limiy dastur mazmuni va natijalarini qamrab olinishiga, shaxsning asosiy malakalarini identifikatsiyalashga erishish talab qilinadi.

4. “Ustoz-shogird” tamoyili. Bu tamoyil o'z mohiyatiga ko'ra ustoz (o'z kasbining ustasi bo'lgan mutaxassis, hunarmand) tomonidan to'plangan kasbiy bilim, ko'nikma, malaka, tajribalarni o'z shogirdi (o'rganuvchi)ga o'rgatishga qaratilgan harakatlar tizimini, jarayonini ifodalaydi. Zero, asriy an'analarga ega ushbu ish uslubiga ko'ra “ustozning vazifasi shogirdga ko'rsatmalargina berish emas, balki uni mustaqil hayotga tayyorlash hamda u tomonidan o'zi ega bo'lgan bilim, malaka, tajribalarni o'rganib olish orqali kelgusi avlodlarga uzatilishini ta'minlash” dan iboratdir.

Milliy hunarmandchilik vositasida umum-kasbiy kompetensiyasini

takomillashtirish jarayonida ham mazkur tamoyil o'smir yoshdagi qizlarning muayyan hunar turi bo'yicha ustozdan zarur bilim, ko'nikma, malaka, tajribani o'rganish orqali bozor munosabatlariga asoslangan jamiyat talablariga muvofiq samarali ijtimoiy moslashuvchiga erishish, qolaversa, tegishli faoliyatning yashovchanligini ta'minlash maqsadi ko'zlandi.

5. Ko'rgazmalilik tamoyili. Ushbu tamoyil muayyan hunar bo'yicha kasbiy bilim, malaka va tajribani nazariy ma'lumotlar bilan tanishib emas, balki bevosita hunarmandchilik ustaxonalarida, real, o'ziga xos “laboratoriyalar”da hunarmandlarning ish faoliyatini kuzatish, tahlil qilish orqali o'zlashtirish maqsadga muvofiqligini anglatadi. Ko'rgazmalilik tamoyilini qo'llashda tegishli jarayonni, asosan, ko'z orqali kuzatish, harakatlarni ko'z yordamida sezish va idrok qilishga imkon beradi.

Tamoyilni qo'llashda uning ko'z yordamida kuzatilayotgan jarayon, harakat, voqelik, hodisalarning har bir detalini ilg'ay olish, shu asosda tashqi amaliy axborotlarni qabul qilishga imkon beradi va buning natijasida o'zlashtirilgan bilimlarning puxta bo'lishiga erishiladi. O'smir yoshdagi qizlarni milliy hunarmandchilik vositasida umum-kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishda ko'rgazmalilik tamoyili shu jihatiga ko'ra ahamiyatli sanaladi. Pedagogik, psixologik manbalarda “ko'rgazmalilik” tushunchasi “ko'rsatmalilik” shaklida ham qo'llaniladi.

6. Vitagenlik tamoyili. Zamonaviy pedagogik yondashuv va tamoyillar orasida vitegenlik alohida o'rin tutadi va bu atama so'nggi yillarda pedagogik terminologiyada faol qo'llanilmoqda. Lug'aviy ma'nosiga ko'ra “vitagen” (lot. “vita” – hayot, hayotiy, hayot bilan bog'liq, hayotga oid) tushunchasi “bilim, ko'nikma, malakalarga ma'lum harakat yoki faoliyatni tashkil qilish, o'zi bevosita bajarib ko'rish orqali erishish, hayotiy tajribaga ega bo'lish” ma'nosini anglatadi.

O'smir yoshdagi qizlarni milliy hunarmandchilik vositasida umum-

kasbiy kompetensiyasini takomillashtirish jarayonida vitagenlik u yoki bu hunar turi bo'yicha kasbiy faoliyatni bevosita o'zi tashkil qilish, dastlabki bilim, ko'nikmalarni o'zlashtirish, xatolarga yo'l qo'yish, ularni bartaraf qilishga intilish, asta-sekin kasbiy malakalarning shakllanishiga erishish, muayyan muddatdan so'ng esa tegishli faoliyatni samarali, muvaffaqiyatli tashkil qila olish hamda barcha jarayonlarda ortirilgan tajribalarni o'zaro muvofiqlashtirish, umumlashtirishni anglatadi. Soha bo'yicha ma'lum tajribaning orttirilishi o'z navbatida shaxsning kasbiy takomillashishi uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi.

7. Ijtimoiy-madaniy yondashuv tamoyili. Har qanday kasb yoki hunar o'zida ijtimoiy rivojlanish maqsadlari, mazmuni, madaniy g'oyalar, qarashlar, qadriyatlar, ehtiyojlar tavsifini yoritishga xizmat qiladi. Qolaversa, ushbu tamoyil negizida "jamiyat – sub'yektlar faoliyatining natijasi bo'lgan madaniy va ijtimoiy borliqning uyg'unligi, birligi, yaxlitligi" degan qarash yotadi. Darhaqiqat, jamiyat madaniy va ijtimoiy munosabatlar natijasi, in'ikosi sifatida shakllanadi..

Xuddi shu g'oyalar o'smir yoshidagi qizlarni u yoki bu hunar turi bo'yicha kasbga yo'naltirilishida ularning ongiga singdirib borilishi, ularda ijodkorlik qobiliyatining asosiy elementlari bo'lgan quyidagi sifatlarni shakllanishi va rivojlanishiga erishish zarur: kognitiv sifatlari – ishchanlik, g'ayratlilik, qiziquvchanlik, topqirlik, zehni o'tkirlik, tajriba qilishga moyillik, o'zgalarning nuqtai nazarlarini tushuna va baholay olish, mazmunli dialog va bahslarga kirisha, shu bilan birga amaliy xulosalarni chiqara olish; kreativ sifatlari: ilhomlanish, tasavvurning kengligi, fantaziya qila olish, his-tuyg'ularni bayon qilish, harakatlar hamda fikrlashdagi erkinlik, o'rganilayotgan ob'yektni his qila olish, tashabbuskorlik, yaratuvchanlik; metodologik bilimlar: o'zining individual xususiyatlarini bilish, o'zi uchun tanish va notanish ob'yektlarni "ko'ra olish", o'zidagi nuqsonlarni bartaraf qila bilish.

8. Ijtimoiy-kasbiy moslashuv tamoyili. Mazkur tamoyil "shaxsning kasbiy faoliyatga, mehnat sharoitlariga, yangi mehnat jamoasiga moslashishini, qisqa vaqtda ishlab chiqarish mehnati taqozo qilgan holda eng yaxshi natijani qo'lga kiritish ko'nikmasiga egalikni", shaxsning ma'lum hunar yoki kasb asoslarini o'zlashtirish orqali shaxsiy ehtiyojlarini qondirish, moddiy ta'minotini shakllantira olish, o'z ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, kelgusida jiddiy talablarga asoslanadigan mehnat sharoitiga ko'nikish ko'nikmalarini o'zlashtirish orqali ijtimoiy munosabatlarga moslashishini ifodalashga xizmat qiladi.

Ma'lumki, balog'at yoshiga yetgan shaxsning kasbiy bilim, malakalarni o'zlashtirishi, ularni amaliyotda qo'llay olishida bir qadar to'siqlar kuzatiladi. Chunki, u o'zining har bir xatti-harakatini ongli baholaydi, o'ziga nisbatan tanqidiy munosabatda bo'ladi. Qolaversa, ayrim xatolarga yo'l qo'yganda atrofdagilarning bu holatni qabul qilishi uni tashvishga soladi. Shu sababli qadimdan an'anaviy yondashuvga ko'ra bolalarning yosh, psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda kasb yoki hunar o'rganishini barvaqt boshlash ma'qullab kelingan. Binobarin, bolalik yoki o'smirlik

yoshida shaxs o'z xatti-harakatlarini u qadar jiddiy tanqidiy baholamaydi. Bu esa ularni xatolarni sodir qilishdan to'smaydi. Hunar yo'nalishi uning sir-asrorlarini erta o'rganishga kirishish faqatgina ijobiy holatlarni kafolatlagan.

9. Ijodiy faollik tamoyili. Ayrim turdagi kasb yoki hunar turlari bo'yicha tashkil etildigan faoliyat unga nisbatan ijodiy yondashishni taqozo etadi. Milliy hunarmandchilik yo'nalishi esa o'z mohiyati bilan ijodiy faoliyat sanaladi. Ko'p holatlarda mahsulotlarni ishlab chiqarish jarayonida ularning shaklini o'zgartirish, ornamentiga o'zgartirishlar kiritish, yangi aksessuarlar bilan boyitish u yoki bu hunar turidagi faoliyatga ijodiy yondashuvni ifodalaydi. Ijodiy faollik “qandaydir ijodiy, madaniy-ommaviy, sport, xayriyaga asoslangan faoliyatni uyushtirish, amalga oshirish jarayoni jonbozlik ko'rsatish”; “shaxsning muayyan faoliyat bo'yicha aqliy imkoniyatlarini muayyan nuqtaga to'plash va irodaviy zo'r berishi orqali yangi bilim va usullarni egallashga intilishini ifodalovchi holati”; aniq maqsadga yo'naltirilgan motiv va harakatlar birligida aks etib, nazariy jihatdan o'zlashtirilgan bilim, muammoning yechimini mustaqil izlashni nazarda tutgan holda ongli ravishda ijodiy vaziyatlarni topishni tavsiflovchi, shuningdek, bir vaqtda ham shaxsning o'zini ham u tomonidan tashkil qilinadigan faoliyatning o'ziga xosligini namoyon qiladigan barqaror integrativ sifat; muayyan topshiriqni bajarish yoki mehnat mahsulotini yaratish yo'lida yangilanish elementlarini olish kirishga yo'nalganlik”.

10. Refleksivlik tamoyili. Pedagogik va psixologik izlanishlarda eng ko'p qo'llanilayotgan tushunchalardan yana biri refleksivlikdir. Lug'aviy ma'nosiga ko'ra “refleksivlik” (lot. “reflexio” – ortga nazar tashlash, bosib o'tilgan yo'lga qarash) atamasi “shaxsning o'zi tomonidan bajarilgan harakatlarni ularni qayta tahlil qilish asosida mustaqil baholashga bo'lgan urinishi” ma'nosini anglatadi. Mazkur tamoyil ta'lim oluvchilarga ular tomonidan “faoliyat mazmunini, usullarini, o'z shaxsidagi o'zgarishlarni va tajribasi ortganini anglashga yordam beradi”. Shu bilan birga mazkur tamoyil “tamoyili sub'yektning o'ziga, shaxsiy faoliyatiga va bilimiga baho berishi, o'zgalarning u haqidagi fikrlari va ular o'rtasidagi hamkorlik faoliyatiga oid munosabatlarni tavsiflaydi”; shaxslarning hamkorlikda amalga oshirilayotgan “o'zaro harakatlari va uning natijalarini o'zlari tomonidan tahlil qilishga yo'naltiradi”.

O'smir yoshdagi qizlarni milliy hunarmandchilik vositasida umum-kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-pedagogik faoliyatni tashkil qilishda yuqorida qayd etilgan ustuvor tamoyillarga tayanish tadqiqotning samaradorligini ta'minladi.

Shunday qilib, murakkab, ko'p bosqichli va aniq maqsadga yo'naltirilgan o'smir yoshdagi qizlarni milliy hunarmandchilik vositasida umum-kasbiy kompetensiyasini takomillashtirish jarayonining umumiy tavsifi, tarkibiy elementlari, pedagogik sharoitlari, bosqichlari hamda ustuvor tamoyillaridan yetarlicha xabardor bo'lish uni muvaffaqiyatli va izchil tashkil etilishi uchun imkoniyatni yuzaga keltiradi. Nazarda tutilayotgan jarayonning tahlil, tashxislash, loyihlash, amaliy, refleksiv baholash

kabi bosqichlarda tashkil qilinishi ko'zlangan maqsadga erishishga xizmat qilishini tasdiqladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Tolipov O'.Q. Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari / O'quv qo'll. – T.: Fan, 2006. – 127-b.
2. Nigmatova G.N. Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarlari iqtisodiy kompetentligini shakllantirish modelini takomillashtirish // J. Scientific and Technical. – Namangan: 2020. - № 9. Tom 2. – 352-b.
3. Зарипова Э.Р., Биктагирова Г.Ф. Творческая активность молодежи через студенческую самодеятельность // Международный журнал экспериментального образования. – М.: 2014. – № 7-1. – С. 78.
4. Шеина Е.В. Внедрение компетентного подхода на уроках истории // <https://kat-kem.ru/wp-content/uploads/2017/10/Внедрение-компетентного-подхода-на-уроках-истории-Шеина-Е.В..pdf>.
5. Herzen A. I. Educational strategies and learning technologies in the implementation of the competence-based approach to teacher education, taking into account humanitarian technologies: Guidelines. – SPb .: Publishing House of the RSU, 2008. – p. 108.